



## Ona tili mashg'ulotlarida izohli lug'atlardan foydalanish ahamiyati

*Shahnoza Muhammadiyeva*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

*Sevinch Xo'jaqulova*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so'zlarning o'zbek tilida qo'llanishi va ularning lug'atlarda aks etishi masalasi yoritib berilgan. Ona tili mashg'ulotlarida izohli lug'atlardan foydalanish ahamiyati ochib berilgan.

**Abstract.** This article describes the use of words in the Uzbek language and their reflection in dictionaries. The importance of using explanatory dictionaries in mother tongue training is revealed.

**Kalit so'zlar:** leksika, lug'aviy birliklar, lug'at, uslub, metodika, adabiy me'yor, sintaktik sinonimiya.

**Key words:** lexicon, lexical units, vocabulary, style, methodology, literary norm, syntactic synonymy.

Lug'at so'ziga "Muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi, leksika, so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmalari, iboralar va boshqa) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tasniflovchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasini haqida ma'lumotlar jamlangan kitobdir"<sup>1</sup> – deya ta'rif berilgan. Lug'atlar muayyan hodisa yoki narsa-buyum haqida axborot beradi. Har bir insonning o'z

<sup>1</sup> [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)



lug‘at leksikoni mavjud bo‘ladi va u shu leksik birliklar yordamida jamiyat bilan aloqa qiladi. Lug‘at yaratish, undan foydalanish, lug‘atlarni turlarga ajratish, tuzish kabi tatqiqot obyektlari insonlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Bugungi kunda bir tilni o‘rganish uchun qancha so‘zni bilish va qo‘llay olish kerak degan savol yuzaga kelmoqda. Va bu savol ko‘plab ilmiy tatqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qildi. “Insonlarning lug‘at maydoni qancha?”, u “qaysi yoshda rivojlanadi?” kabi savollar leksik minimum tushunchasining ilm-fanga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Leksik minimum – insonning eng kam so‘z bilish darajasidir. Ya’ni insonlarning lug‘at leksikonni aniqlash darajasi. Bu mavzuda Yevropa olimlari bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularga to‘xtalib o‘tamiz. Ilmiy adabiyotlarda 7 yoshli bolalarning 3000 dan 7000 gacha, 14-15 yoshli bolalarning esa 11000 dan 18000 ga qadar so‘zlar leksikonida mavjud bo‘lishini ko‘rsatiladi. Bu kabi raqamlarni va xulosalarning kelib chiqishi leksik minimum tushunchasiga borib taqaladi. Leksik minimum turli yosh davrlarida turlicha bo‘lishi mumkin. Leksik minimumni aniqlash uchun lug‘at leksikonning shakllanish davrlari qiymatlidir. Lug‘at leksikonning shakllanish davri chaqaloqlik davrida vujudga keladi. Dastlab dunyo bolalari 6 oylikda 10 oylikka qadar hamma tillar uchun umumiy bo‘lgan tovushlarni qabul qiladi. So‘ngra bitta tilga oid bo‘lgan tovushlarni farqlay boshlaydi. Bolalarning daslabki o‘rganadigan so‘zlari ularning ota-onasi, tana azolari, atrof-muhit haqidagi kundalik ishlatiladigan so‘zlardir. Bolalar dastlab o‘z atrofidagi insonlar, belgi-hodisalar, narsalar haqida axborotlarni qabul qila boshlaydi. Bu, albatta, ularning lug‘at boyligi shakllanishida ham o‘z aksini topadi. Bundan tashqari ular ishlatadigan so‘zlar asosan bir bo‘g‘inli, aytilishi oson yoki takrorlanuvchi so‘zlar bo‘ladi. Masalan, “dada”, “oyi” kabi so‘zlarni birinchi talaffuz qilishadi. Bunda bolalar ota-onalari va tevarak-atrofida eng ko‘p takrorlanadigan so‘zlarni o‘zlashtiradi va nutqida asta-sekin qo‘llay boshlaydi. Odatda, 18 oylik chaqaloqlar 50 taga yaqin so‘zlarni o‘zlashtiradi va so‘z birikmalari yasashi mumkin. So‘zlarni tushunish jarayoni bu davrda ikki baravar



ortadi. Ammo soʻz birikmalarining birlik anglatishi koʻpincha kuzatilmaydi. Bolalar olti oylik boʻlganda artikulyatsiyon harakatlar (gapiryotgandagi ogʻiz harakatlari)ga eʼtibor beradi va bu tovushlarni farqlash qobiliyatini oshiradi. Chaqaloqlik davrida eshitish orqali soʻzlarni qalub qilish jarayoni sodir boʻladi. Qabul qilingan soʻzlarni nutqda qoʻllash jarayonida soʻzlar talaffuzi buzilishi mumkin. Chaqaloqlarning fonologik qayta ishlash jarayoni 18 oylikdan 7 yoshgacha toʻldirilishini ilmiy kuzatishlar isbotlagan. Til oʻrganish jarayonidagi ishtirok etadigan oʻrganish mexanizmlari faqat ogʻzaki nutqqa bogʻliq boʻlmaydi. Boisi tugʻilgandan boshlab imo-ishora tiliga mahkum boʻlgan kar chaqaloqlar 10 oydan 14 oygacha qoʻllari bilan gapira boshlaydi. Xuddi ogʻzaki nutqli chaqaloqlarda uchragani kabi nuqsonli bolalarda ham qoʻlda soʻzlash boʻgʻinli tarzda namoyon boʻladi va tez-tez qoʻl harakatlari takrorlanadi. Shu tarzda bolalar ulgʻaygan sari dunyo va insonlar bilan yaxshiroq aloqaga kirishadilar. Bu oʻz navbatida ularning nutqiy rivojlanishiga ham taʼsir qiladi. Bu jarayonlar qay darajada rivojlanganligini esa minimal soʻz boyligi aniqlab beradi. Gʻarblik olimlar: Richards, Malvern, David, Broeder, Milton, Vermeer, Hill, Konza, Sinatra, Zyouris-Coe, Dasinger, Malvern, Govern, Jalvis, Bardel, Laufer, Bardel, Cobb, Horst, Brown, Van der Vilt, Shrooten, Barry, Dewhurst, Hitch, Gerhard, Baayer, Schrooten, Van Hout kabi koʻplab olimlar minimal soʻzlar lugʻatini aniqlash, oʻlchash haqida bir qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ammo bizning taʼlim tizimimizda minimal soʻz boyligi haqida haligacha ilmiy tatqiqotlar amalga oshirilmagan. Yevropalik olimlar lugʻat boyligini oʻlchashda bir qator usullardan foydalanishgan. Leksik xilma-xillikni aniqlashning eng keng tarqalgan chora tadbirlari soʻz turlarini kvadratga boʻlish orqali oʻlchanadigan Guiraud indeksi (GI)dir. GI matn uzunligi taʼsirini minimallashtiradigan tur-token (soʻz turkumi nazrda tutilgan) nisbatlarining hosilasi hisoblanadi. Ushbu usulda tur-token nisbati oʻzgarishini koʻrsatish uchun egri chiziqli moslama yondoshuvidan foydalanilgan. Bu yoʻl orqali soʻzlarning xilma-xillik darajasi oʻlchangan. Tatqiqotchilar



o‘quvchilarning qancha so‘z va so‘z birikmalarini bilishini aniqlashda turlardan foydalanganlar. Ikkinchi yo‘l korpusdagi so‘zlarning umumiy soniga e‘tibor berganlar. Rus tatqiqotchilarining nazariyalariga qaraganda leksik minimum so‘zlarni asosan ot, sifat va fe‘lga oid bo‘lgan so‘zlar tashkil qiladi. GI usulida ham so‘zlarning turlari so‘z turkumlarini anglatadi. Yana bir tatqiqot usuli bu MLR (Lexical Richness Measure)dir. Bu yo‘l lug‘at boyligini qo‘llanilayotgan so‘zlarning qiyinchilik darajasi asosida o‘lchaydi. MLR yarim avtomatik kompyuter dasturi yordamida hisoblab chiqilgan boshlang‘ich ta‘limdagi o‘quvchilar matnlarini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, taxminan 25000 xil so‘z kiritilgan. MLRni qo‘llash orqali 2-sinfda (7-8 yoshda) birinchi tili golland tili bo‘lgan 16 nafar golland bolalari va ikkinchi tili golland tili bo‘lgan etnik ozchilikni tashkil qiladigan 16 nafar bolalarning lug‘at boyligi tekshirib ko‘rildi. Har bir boladan 200 ta so‘z to‘plangan va MLR orqali tahlil qilingan. Bolalarning MLR ballari ularning lug‘at hajmini ko‘rsatuvchi “Reseptiv lug‘at” va “Tasniflash” topshiriqlari bo‘yicha olgan ballari hamda turli xil so‘z turlariga asoslangan ko‘rsatkichlari solishtirilgan. Tekshiruv natijalari shuni ko‘rsatadiki, MLR lug‘atda aniq farqlarga ega bo‘lgan ikki guruhni ( gollandiyalik birinchi va golland tili ikkinchi tili bo‘lgan bolalar) sezilarli darajada farqlaydi.<sup>2</sup> Bir xil yoshdagi bolalarga berilgan lug‘at vazifalari bilan yuqori va muhim korellatsiya jarayoni ko‘zga tashlanadi. Bolalarning sintaktik qobiliyatlari, so‘zlar va gaplar tahlil qilinadi. Shunday qilib MLR bolalar uchun o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan nutq ma‘lumotlarini, leksik boyliklarini o‘lchaydigan, samarali so‘z boyligining Mutlaq hajmli baholash usuli sifatida tadbiiq etiladi. Bu shaklda minimal so‘z boyligini tekshirish matematik modellashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu usulda lug‘at boyligini tekshirishning yutuqli tomoni so‘zlar soni, uning ma‘no va qiyinlik darajasi ham inobatga olinadi. Matn tarkibidagi “murakkablik”, “darajalanish” jihatlari lug‘at boyligining yutug‘i hisoblanadi. Barcha insonlar uchun “uzunlik” va “vazn” qiymatlari doimiy bir xil –

<sup>2</sup> Chapter 9The Relation between Lexical Richness and Vocabulary Size Dutch L1 and L2Children



barqaror qiymatga ega bo'lmagani kabi so'z qo'llash mahorati ham har bir insonda har xil sodir bo'ladi. Yana bir tomoni, so'zlar ikki xil chastotaga ajratiladi: yuqori chastotali so'zlar va past chastotali so'zlar. Yuqori chatotali so'zlar – bu faol leksikonni, past chastotali so'zlar esa Passiv leksikonni ifodalaydi. Passiv lug'at leksikonidagi so'zlar ma'no jihadan faol lug'at leksikonidagi so'zlardan darajasi yuqori bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilar bu usulda so'z boyligini o'lchash uchun so'zlar lug'atini to'qqizta toifadagi chastotaga ajratadi. Bu xuddi IELTS imtihonidagi 7-7,5 va 6-5,5 darajalik so'zlarga to'g'ri keladi. Lug'at boyligini o'lchashda bunda ko'rinadiki, so'zlarning ma'noviy darajalanish, bo'yoqdorlik tomonlari ham inobatga olinishi kerak.

Biz uchun leksik minimumni o'lchash nega kerak? Bu savolning javobi quyidagicha:

Har bir yosh davrida o'zlashtiriladigan, muloqot jarayonida qo'llaniladigan so'zlar miqdorini aniqlash va shu orqali o'quvchilarning lug'at boyligining qay darajada ekanligini tekshirish hamda ularning lug'at leksikonida mavjud bo'lmagan yoki passiv leksikondagi so'zlarni faol leksikonga o'tkazish jarayoni uchun muhimdir. Shu boisdan bizning ta'lim tizimimizda ham minimal lug'at boyligini o'lchash va shu orqali o'quvchilar lug'at boyligidagi bo'shliqlarni to'ldirish lozim.

O'quvchining dunyoqarashi va so'z boyligi uning o'z fikrini ifoda etish aks etadi. Kishilar o'rtasidagi kommunikatsiyada ulardagi so'z qo'llash mahorati namoyon bo'ladi. So'z boyligi keng bo'lgan o'quvchi axborot almashinuv jarayonida o'z fikrini erkin bayon eta oladi. Shu bois so'z boyligini oshirish va ulardan samarali va to'g'ri foydalana olishda izohli lug'atlarining o'rni muhim hisoblanadi.



Paronimlar izohli lug‘ati, sinonimlar izohli lug‘ati, omonimlar izohli lug‘ati, antonimlar izohli lug‘atlari nutqning aniqligi, jo‘yaliligi, mantiqiyliigi va samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Paronimlar izohli lug‘atlaridan foydalanish orqali o‘quvchi nutqda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash va undan foydalana olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Sinonimlar izohli lug‘atlari orqali o‘quvchining boshqa bir so‘z o‘rnida uning muqobil variantini tanlay olish ham uning so‘zamolligini anglatadi. Aynan sinonimlar lug‘ati nimaga kerak? Qanday tashkil qilinsa, o‘quvchi va o‘qituvchi uchun foydali bo‘ladi?, kabi savollarga javob izlashga harakat qilamiz. Professor Baxtiyor Mengliyev o‘zining maqolasida shunday deydi: “Lug‘at o‘quvchini o‘z ustida ishlashga o‘rgatadi. Uning beminnat doimiy hamrohi bo‘ladi, barcha savollariga javob bera oladigan yordamchi hisoblanadi. O‘quvchining so‘z boyligining oshishida sinonimlar o‘quv lug‘atining o‘rni katta. Misol tariqasida adabiyot darsliklarida, ona tili darsliklarida berilgan matnlarning ost qismida o‘quvchi uchun ba‘zi ma‘nosi tanish bo‘lmagan so‘zlar lug‘ati berib o‘tiladi. Ammo o‘quvchi matnni to‘liq tushunib yetishi uchun bu kabi lug‘atlar kamlik qiladi”. Biz shundan anglashimiz mumkinki, ayni paytda nafaqat adabiyot darslarida balki ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun aynan sinonimlar lug‘ati zarur hisoblanadi. Yozma matnlar yaratish, insho, esselarni yozishda, ya‘ni yozish ko‘nikmasining rivojlanishida, og‘zaki nutqni rivojlantirishda ham fikrni to‘g‘ri bayon etish uchun aynan sinonimlar lug‘ati yordamga keladi. Sinonimlar izohli lug‘ati o‘quvchining uslublardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatadi. Masalan, so‘zlashuv uslubida qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zlarni badiiy uslubda, badiiy uslubda qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zlarni so‘zlashuv uslubda qo‘llash orqali uslubiy xatoliklarni vujudga keltiradi. Anvar doskada mavzuni bayon ayladi. (aslida bayon ayladi emas balki mavzuni haqida gapirdi, mavzuni bayon qilib berdi, mavzuni so‘zladi kabi). Gulnozaning ko‘ngli



qo‘rquvdan yorilib ketdi. Aslini olganda, “ko‘ngli” emas balki “yuragi” tarzida bo‘ladi. Har bir sinonimik qatorda dominatta so‘z bo‘lishi hammamizga ma’lum. Yuz, chehra, oraz, aft, bet, bashara, turq bu yerda yuz so‘zi uslubiy betaraf, chehra, oraz so‘zlari esa ko‘proq badiiy uslubga xos. Aft, bet, bashara, so‘zlari so‘zlashuv uslubida foydalaniladi. Bu uslubiy bo‘yoqdorlikni yuzaga keltiradi. Yuqorida keltirgan misollarimizdan bir qancha keltirishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, izohli lug‘atlar bizga nafaqat uslublardan o‘rinli foydalana olishimiz uchun, balki so‘z tanlash qobiliyatimizning ham rivojlanishiga yordam beradi.